

O'rmonga



16:10 / 14.03.2019 2314

4

Ya'qubning Yusufga ruxsat berganidan inilari xursand bo'lishdi. Ular o'rmonga bordilar va Yusufni o'rmondagi quduqqa tashladilar. Kichik Yusufga ham, keksa Ya'qubga ham sira rahm qilmadilar. Yusuf kichkina bola edi, uning qalbi ham yosh edi. Quduq chuqur va qorong'i bo'lib, Yusuf yolg'iz o'zi edi. Lekin Alloh Yusufga bashorat qildi va unga: "Mahzun bo'lma, qo'rqma", dedi. "Albatta Alloh sen bilan birgadidir. Seni oldingda hali buyuk bir ish bordir. Sening oldinga aka-ukalar kelishadi va sen ularga qilgan ishlarining xabarini berasan", dedi.

Ular o'z ishlarini tugatib, Yusufni quduqqa tashlagach, yig'ilishdi va:

"Otamizga nima deymiz?" deyishdi. Ulardan biri: "Otamiz uni bo'ri yeyishidan qo'rqaman" der edi. Biz ham, ey ota! Sen to'g'ri aytgan ekansan, uni bo'ri yeb ketdi", deymiz", dedi.

Inilar shunga kelishib: "Ha, otamizga "Uni bo'ri yedi, deymiz", deyishdi. Ulardan ba'zilari: "Buning belgisi nima bo'ladi?" deyishdi. Boshqalari: "Buning belgisi qon", deyishdi. Inilar qo'chqor olib, so'ydilar. Yusufning ko'ylagini olib, qonga bo'yadilar. Inilar xursand bo'lib: "Hozir otamiz bizga ishonadi", deyishdi.